

O'ZBEKISTONNI JSTGA A'ZO BO'LISHI:MILLIY SAVDO SIYOSATI VA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Raxmatullayeva Yulduz Ubaydullo qizi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 3-kurs Xalqaro munosabatlar talabasi.

Annotatsiya: *Jahon iqtisodiyoti tobora globallashib borayotgan davrda yashar ekanmiz.mamlakatlarning xalqaro tizimiga integratsiyalashuvi ularning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishi uni tashqi siyosatini yanada erkinlashishi,eksport salohiyatini oshishi,iqtisodiyotini yaxshilanishi va milliy iqtisodiyotda bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish yo'lidagi muhim bosqich hisobalanadi.*

Kalit so'zlar: *JST,integratsiya,iqtisodiy barqarorlik,eksport,tashqi siyosat,bozor iqtisodiyoti*

O'zbekiston 1994-yildan beri Jahon savdo tashkilotga kirishga harakat qiladi.Bunga misol qilib shu yili 8-dekabrda JSTga a'zo bo'lish uchun rasman ariza topshiradi.1995-yilda JST Bosh kengashi O'zbekistonni a'zolik arizasini ko'rib chiqib,ishchi guruh tuzdi.Unga ko'ra 1994-yildan bugungacha JSTga a'zo bo'lish harakatlari ketmoqda.Mazkur maqola esa O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishning milliy savdo siyosatiga ta'siri,raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qiladi.

JST va uning asosiy tamoyillari-bu xalqaro savdo tashkilotning bitmlari uzoq muddatli va murakkab,chunki ular keng ko'lamli faoliyatni qamrab oladi.Shuning uchun bu tashkilotga a'zo bo'lish uzoq vaqtni oladi.Quyida uning asosiy tamoyillari:

- Teng huquqli va diskriminatsiyadan ozod bo'lgan savdo-JST kelishuvlariga ko'ra tashkilot o'z a'zolariga bir xilda iqtisodiy munosabatlar olib boradi.Ular orasida tengsizlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaydi.Imtiyozlar bir xilda taqsimlanadi.Kimgadir alohida imtiyozlar berilishiga yo'l qo'ymaydi.

- Xorijiy va mahaliy tovarlarga teng munosabatda bo'lish-chetdan kirib keladigan va mahaliy,mamlakat ichkarisida ishlab chiqariladigan tovarlarga bir xil narx belgilanishi kerak.Ular orasida tengsizlikka yo'l qo'ymaslik kerak.Bu JSTning GATTning 3-moddasi, GATSning 17-moddasi va TRIPSning 3-moddasida belgilab qo'yilgan.

- Erkin savdo:asta-sekin,muzokaralar orqali-erkin savdoni rag'batlantirishni birdan-bir yo'li bu savdo to'siqlari,bojxona to'siqlar va tariflar miqdorini kamaytirish deb qarashadi,shuningdek, bu harakatlarni bosqicha-boshqich olib borish tarafdorlaridan biri hisoblanadi.

- Adolatli raqobatni rivojlantirish-JST o'z a'zolari o'rtasida adolatli raqobatni ta'minlasa ham ba'zi kam rivojlangan davlatlarga bir qancha yordamlar berib turadi.Lekin qatnashchilar o'rtasida huquqiy qoida buzarlilar va iqtisodiy jinoyatlarni oldini olishga harakat qiladi.

- Rivojlanish va iqtisodiy islohotlarni rag‘batlantirish-JST islohotlar va rivojlanish tarafdori.Bu yuzdan a‘zosi bo‘lgan ba‘zi rivojlanayotgan davlatlarga maxsus yordam va savdo imtiyozlari bilan ta‘minlaydi.

O‘zbekistonni jstga a‘zo bo‘lish jarayoni va islohotlari

O‘zbekistonni JSTga a‘zo bo‘lish jarayonlar 1994-yildan boshlangan bo‘lib,biroq o‘sha payti olib borilgan „O‘z-o‘zini ta‘minlash islohoti orqali oxirgacha yetmay qolgan va 2005-yil to‘xtatilgan.Ammo 2018-yilga kelib prezident Mirziyoyev boshchiligida qayta boshlangan.JSTga a‘zo bo‘lishning iqtisodiyotni libyrallashtirish va ichki savdoni modernizatsiya qilish bo‘lgan.Lekin bu tashkilotga a‘zo bo‘lish uzoq vaqt talab etadi.Shuning uchun bugungi kungacha bu jarayonlar davom etmoqda.

Islohotlar

Dastur davomida 2020-yildan beri 4ta ko‘p tomonlama muzokaralar o‘tkazildi va tovarlar bozoriga kirish uchun 9 ta JST a‘zosi bilan ikki tomonlama muzokaralar tomomlandi.

Intellectual mulk va texnik reglamentlar to‘g‘risida milliy qonun JST talablariga muvofiqlashtirildi.Subsidiyalar,savdo bilan bog‘liq investitsiyalar choralari,erkin iqtisodiy zonalaridagi choralar kabi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ham qayta ko‘rib chiqildi.

- 1000dan ortiq davlat mutasaddilar,shuningdek 250 nafar ayol JST qoidolari va tartiblari haqida seminar,treninglar orqali ma‘lumotga ega bo‘ldi.

- Toshkentdagi universitetda maxsus o‘quv dasturiga kiritilgan JST huquqi va amaliyot moduli tashkil etildi.

- 2023-yilda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 30 nafar talabasi JST huquqi bo‘yicha kursni ta‘momladi.

Jst a‘zolidan kutilayotgan iqtisodiy natijalar

O‘zbekistonda 2023-yilga kelib JSTga a‘zolik harakatlari yanada kuchaydi.Bugungi kunga kelib esa JSTga a‘zo bo‘lish imkoniyatlari yanada kengaydi.JST bo‘yicha maxsus vakil Azizbek Urinov bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘pligiga qaramay.Jahon bankini yordami bilan bu tashkilotga a‘zo bo‘lish yanada aniq bo‘lib borayotganini aytib o‘tdi.Shuningdek,JSTga a‘zo bo‘lish iqtisodiyotni 17%ga o‘sishiga sababchi bo‘lishini kutishmoqda.

Eksport imkoniyatlarining kengayishi-O‘zbekiston JSTga a‘zo sifatida eng qulay savdo rejimidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.Bu degani,O‘zbekiston mahsulotlariga boshqa JST a‘zolari tomonidan diskriminatsion bojlar yoki cheklovlar qo‘yilmaydi.Yangi bozorlar ochiladi:paxta,to‘qimachilik,oziq-ovqat,kimyo va metall mahsulotlari uchun.Mahsulotlar xalqaro standartlarga moslashgan sababli eksport hajmi oshadi.

Xorijiy investitsiya oqimining ortishi-JST a‘zoliqi investorlar uchun barqaror,shaffof va prognoz qilinadigan muhit yaratadi.Investorlarda O‘zbekiston iqtisodiy siyosati JST qoidolari asosida olib borilishiga ishonch paydo bo‘ladi.

Mahaliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish-bu jarayon dastlabki bosqichda mahaliy ishlab chiqaruvchilarga bir qancha qiyinchilik olib kelsada,uzoq muddatda samaradorlikni oshishiga sababchi bo‘ladi.

Eksport diversifikatsiyasi-bugungi kunda O‘zbekistonni eksport mahsulotlarini faqat xomashyo(gaz,paxta,oltin)tashkil etadi.JST a‘zolidan so‘ng esa O‘zbekiston eksportidan qayta ishlangan,yuqori qiymatli mahsulotlar kutishmoqda.Mahsulot sertifikatitsiyasi va standrtlashish xalqaro talablarga moslashadi.

Kichik va o‘rta biznes-JST ga a‘zo bo‘lish bu kabi kichik biznes sektorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash imkonini beradi:

- Eksport uchun sertifikat olish tartibotlari soddalashadi
- Elektron savdo tizmlari kengayadi
- Mahsulotlar uchun global raqobatbardoshlik ortadi

JST a‘zolidan kelib chiqadigan xavflar va muammolar

Ichki ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat bosimi-JSTga a‘zo bo‘lgandan so‘ng import bojlari pasayadi va mamlakatga arzon xorijiy tovarlar kirib keladi.Natijada kichik va o‘rta biznes vakillari raqobatga chiday olmasligi mumkin.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarning cheklanish-JST qoidalariga ko‘ra davlat mahalliy korxonalarni endi ortiqcha subsidiyalar bilan qo‘llay olmaydi.Hamda ayrim mahsulotlar uchun bojxona himoyasini kuchaytira olmaydi.

Importga qaramlik xavfi-xorijiy tovarlar bozordan mahalliy tovarlarni siqib chiqarishi mumkin.Importga qaram bo‘lib qolish va tashqi savdo balansida salbiy saldo paydo bo‘lish.

Qishloq xo‘jaligi sektoriga bosim-eksport subsidiyalari va davlat xaridlarini qiqarishi va bozor mexanizmlarini ustuvor ahamiyat kasb etadi.Bu esa kichik firmalar uchun raqobatbardoshlikni saqlab qolish muammosini keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy nomutanosibliklarning kuchayishi-JST a‘zolidan keyin raqobatbardosh tarmoqlar tez rivojlanadi.Lekin past samarali sohalar orqada qoladi.Bu esa mintaqalararo va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Huquqiy va institutsinal muammolar-JST a‘zoli O‘zbekistondan,bozor iqtisodiyoti prinsiplari,tashqi savdo qonunchiligi,intellektual mulk himoyasi sohalarida xalqaro standartlariga to‘liq moslashishini talab qiladi.

Raqobat bardoshlikni oshirish strategiyalari

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish-O‘zbekiston bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlarini ishlarini moliyalashtirish hajmini oshirish.Innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi texnoparklar,inkubatorlar va grant tizimini kengaytirish.Sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish.Universitet va biznes hamkorligini kuchaytirish.

Sanoatni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya-raqobatbardosh iqtisodiyot sanoatning texnologik darajasi bilan belgilanadi.Shu bois,energiya tejamkor,ekologik toza ishlabchiqarish texnologiyalarini joriy etish.Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportga o‘tish.Sanoat tarmoqlarni hududiy diversifikatsiya qilish.Bunday modernizatsiya eksport mahsulotlarning qo‘shilgan qiymatini oshiradi.

Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash-mamlakat uchun bu tur biznesni rivojlantirish muhim chunki ichki bozorni importga qaram bo‘lib qolmasligi uchun.

Inson kapitalini rivojlantirish-har qanday davlatda raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitaliga e'tibor qaratishi kerak.Buning uchun birinchi navbatda ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish,kasbiy-hunar markazlari tarmog'ini kengaytirish.Chet elda o'qigan mutaxassislarni mamlakat iqtisodiyotiga qaytarish dasturlarini kuchaytirish kabi islohotlarni talab qiladi.

Moliyaviy barqarorlikni va investitsion muhitni yaxshilash- mamlakat uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Bu muhitni yaxshilash uchun esa xalqaro reyting agentliklarida O'zbekistonning imijini yaxshilash,xususiy sektor uchun kredit,sug'urta va kafolat mexanizmlarini kengaytirish.

Hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish-raqobatbardoshlik faqatgina milliy darajada emas balki viloyatlar o'rtasida ham rivojlanishi kerak.Ayniqsa mamlakat bo'yicha har bir viloyatni ixtisoslashuvini aniqlash iqtisodiyotni samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,O'zbekistonni JSTga a'zoli va global iqtisodiyotga integratsiyasi sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshadi:

- o Innovatsion iqtisodiyotga o'tish
- o Sanoatni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya
- o Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash
- o Inson kapitalini rivojlantirish
- o Moliyaviy barqarorlikni va investitsion muhitni yaxshilash
- o Hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish

Mazkur strategik yo'nalishlar uyg'un tarzda amalga oshirilsa,O'zbekiston iqtisodiyoti nafaqat mintaqaviy,balki global miqyosda ham barqaror,innovatsion va raqobatbardosh tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/fact2_e.htm
2. https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/o%E2%80%99zbekistonning-jahon-savdo-tashkiloti-jstga-%E2%80%99zo-bo%E2%80%99lish-jarayoniga-ko%E2%80%99maklashish_uz?s=233
3. <https://www.german-economic-team.com/en/newsletter/uzbekistans-wto-accession-the-impact-of-tariff-libe>